

OCHIQ MATEMATIKA OLIMPIADASI

Mezon Inspiring School

1 sinf

29 mart 2025

1. Chelak ichiga solingan sut bilan birgalikda og'irligi 7 kilogramm, bo'sh chelakning og'irligi esa 1 kilogramm. Agar chelakning yarmiga qadar sut solinsa, uning og'irligi qancha bo'ladi?

   Yechim:

   Javob: _____

2. 20 dan 77 gacha bo'lgan butun sonlarning qaysilari raqamlarining yig'indisi 5 ga teng?

   Yechim:

   Javob: _____

3. Estafeta musobaqasida beshta 2-sinf jamoasi qatnashgan. 2 «B» jamoasi 2 «A» jamoasidan oldin kelgan, ammo 2 «G» jamoasidan keyin kelgan. 2 «V» jamoasi 2 «G» jamoasidan oldin kelgan, va 2 «D» jamoasi 2 «A» jamoasidan keyin kelgan. Qaysi jamoa birinchi bo'lib kelgan?

Yechim:

Javob: _____



4. Omborxonada 4 ta mushuk bor. Har bir mushuk kuniga 3 ta sichqonni ovlaydi. Ular bir hafta davomida nechta sichqon tutishadi?

Yechim:

Javob: _____



5. To‘g‘ri to‘rtburchakdagi noma’lum o‘rniga shunday son tanlab qo‘yingki, har bir qatordagi va har bir ustundagi sonlarning yig'indisi bir xil bo'lsin:

8	x	6
3	5	7
4	9	2

Yechim:

Javob: _____



6. Po‘latda 18 dona qandli tayoqcha bor. U Akbarga 4 donasini berdi, Ozodaga esa Akbarga qaraganda ikki marta ko‘p berdi. Po‘latda hammasi bo‘lib necha dona qandli tayoqcha qoldi?

Yechim:

Javob: _____



7. Otasi tortni 8 bo'lakka kesdi. So'ngra yana bir pichoq olib, har bir bo'lingan bo‘laklarni yana teng ikkiga bo‘lib chiqdi. Jami bo‘lib nechta tort bo'laklari hosil bo'ldi?

Yechim:

Javob: _____



8. Kenguru har bir sakrashda 3 metr oldinga sakraydi. U yana 24 metr masofani sakrab bosib o‘tishi kerak. Kenguru yana nechta sakrashda bu yo‘lni bosib o‘tadi?

Yechim:

Javob: _____